

Oktabr, 2024-Yil

AMIRLIKNING MANG'ITLAR DAVRIDA XONLIKLAR BILAN O'ZARO

ALOQALARI VA TASHQI SIYOSATI

Rahmonov Oybek Ravshan o'g'li

Romitan tumani 18- maktab o'qituvchisi

E- Pochta: buxara152@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13925835>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi Mang'itlar sulolasining Qo'qon xonligi, Xiva xonligi, Rossiya va boshqa chet mamalakatlari bilan tashqi aloqalari va o'zaro siyosiy aloqalari haqida bir qancha ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Qo'qon xonligi bilan o'zaro aloqalar, Xiva xonligi bilan o'zaro aloqalar, Rossiya bilan aloqalar, Yevropa mamlakatlari bilan o'zaro aloqalar.

ОТНОШЕНИЯ И ВНЕШНЯЯ ПОЛИТИКА ЭМИРАТОВ С ХАНЬЯМИ В
ПРОБЛЕМНЫЙ ПЕРИОД

Аннотация. В данной диссертации приводятся некоторые сведения о внешних связях и внешнеполитических связях династии Мангит с Кокандским ханством, Хивинским ханством, Россией и другими зарубежными странами.

Ключевые слова: Отношения с Кокандским ханством, отношения с Хивинским ханством, отношения с Россией, отношения с европейскими странами.

XIX asrda Buxoro davlatchiligi tarixi mang'itlarining navbatdagi hukmdori Amir Haydar (1800-1825) podshohlighi bilan boshlandi. U o'z sulolasidan bo'lgan boshqa tojkorlarga nisbatan ko'p jihatlari bilan o'zbek milliy davlatchiligi tarixida sezilarli iz qoldirgan, mang'itlar hukmronligini mustahkamlash, ichki va tashqi muxoliflarga qarshi kurashda qator muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishga erishgan. Bu hol, ayniqsa, uning tashqi siyosatida o'z davridagi g'oyat murakkab xalqaro munosabatlarni to'g'irlab olib borishda yorqin namoyon bo'ldi. Amir Haydar hukmronligining dastlabki o'n yili ichida Buxoro davlati olib borgan tashqi siyosiy diplomatik munosabatlarning ayrim qirralari haqida haqqoniy va yangi ma'lumotlar beruvchi safarnomalar bugungi kunda davlatchilik tarixi masalalarini yanada chuqurroq tadqiq etishga imkon tug'diradi.

1805-yilda Rossiya tashqi ishlar vazirligi boshqarmasining boshlig'i knyaz Adam Charteriyskiy ko'rsatmasiga binoan maxsus karvonda savdogar qiyofasida Orenburgdan Buxoroga rus konfidentlaridan biri Habibulla Abdulov (bundan oldin ham bir necha maxfiy topshiriq bilan bu yerga kelib ketgan) yuboriladi. U bu yerda rasman soxta pul yasashda ayblangan

Oktabr, 2024-Yil

va Buxoroga qochib kelgan rus fuqarolari teptyar-totorlarni Rossiyaga topshirish haqida muzokaralar yuritadi, ammo aslida unga yuklatilgan asosiy vazifa Nodirshohning Buxoroda yashashi taxmin etilgan nevarasini rus imperatori panohiga olib ketish va undan Rossiyaning O'rta Sharqdagi mustamlakachilik siyosatida foydalanish bo'lgan. Ayni vaqtda unga "buxoroliklarning Xiva va Eron bilan bo'lgan munosabatlarining darajasi haqida xufya ma'lumotlar yig'ish, bu ishlarga boshqa Yevropalik davlat vakillari aralashayotani yo'qmi, degan masalani ham aniqlash" yuklatilgan edi. 1809-yilda Rossiyadan Buxoroga maxfiy suratda yana bir konfident poruchik Adilnosir Subhonqulov yuboriladi. Savdo karvoni bilan kelgan bu "vakil" ham Buxoroning ichki va tashqi ahvoli haqida, uning harbiy quvvati to'g'risida batafsil materiallar to'playdi va bu ma'lumotlar tartibga solinib, Orenburg gubernatori tomonidan Peturburgga jo'natiladi.

1812-yilda Ost-Indiya kompaniyasi Peshovardan Afg'oniston orqali Buxoroga o'z vakili Hofiz Muhammad Fozilxon ismli kimsan elchi sifatida Amir Haydar huzuriga yo'llaydi. O'sha yili u Buxoroga kelib uning hukmdori qabulida bo'ladi va amirga kompaniya rahbariyati hamda Buxoroga Kashmir orqali inglizlar yuborgan asosiy elchi – Mir Izzatulloh nomidan bitilgan nomalarni topshiradi. Hofiz Fozilxon o'z taassurotlarini fors tilida bitilgan "Buxoro manzillari tarixi" safarnomasida bayon qilgan. Xuddi shu yili yana Ost-Indiya kompaniyasi Hofiz Fozilxondan keyin Buxoroga o'zlarining asosiy elchilarini safarga otlantiradi. Bu elchilikka Said Mir Izzatulloh boshchilik qiladi. Ular Kashmirdan o'tib, sharqiy sarhadlardan Buxoro amirligi tuprog'iga kirib keladilar. Izzatulloh Buxoro amiri bilan ko'rishgach, bu yerdan Markaziy Osiyoning boshqa shaharlariga ham safar qiladi. U ham Fozilxon singari barcha taassurotlarini maxsus hisobot tarzida yakunlab, Ost-Indiya rahbarlariga topshiradi. Ammo Said Mir Izzatullohning safar esdaliklari Fozilxonning "Buxoro manzillari tarixi" asaridan farqli o'laroq, oradan sal fursat o'tgach qisqartirilgan holda avval fransuz, so'ngra to'la ravishda ingliz tillariga tarjima qilinib, kitob holida chop etiladi.

O'tgan asrning dastlari o'n yili ichida Buxoro amirligiga kelib ketgan ana shu "sayyohlar"ning qoldirgan safar taassurotlari mazmuni shuni ko'rsatadiki, bu o'zbek xonligi o'sha yillarda nafaqat O'rta Sharq mintaqasida, balki jahon miqyosida ko'tarilgan muhim xalqaro muammolar bilan aloqador bo'lgan.

Podsho Rossiyasi bosqinidan oldin O'rta Osiyo hududidagi xoniklar, xususan, Buxoro amirligi O'rta Osiyodagi eng boy va qudratli davlatlardan biri hisoblanar, uning davlat qurilishi hamda diplomatiyasi qo'shni davlatlar siyosatiga yuqori darajada ta'sir o'tkazib kelar edi. Shu bois ham ayni kunda bu davrdagi diplomatik munosabatlar, elchilik bordi-keldilariga oid nodir

Oktabr, 2024-Yil

qo'lyozmalarni tadqiq etish – xalqimizga o'zining haqiqiy o'tmishini qaytarib berish muhim vazifalarimizdan biridir.

Tariximizning o'qilmagan sahifalariga ko'z yuritish natijasida shunga amin bo'lish mumkin: 1860-yilda Buxoro taxtiga Amir Muzaffarning o'tirishi bilan amirlikning xalqaro aloqalari yangi bosqichga ko'tarildi. Chunki xudi shu davrda Rossiya imperiyasining Turkiston sarhadlariga tajovuz xavfi yanada ortdi. Aynan 1860 yildan boshlab Qo'qon xonligi tasarrufidagi Oqmachit (hozirgi Qizil O'rda), Pishpek (Bishkek), Avliyo ota (Jambul), Turkiston shaharlarini birin-ketin bosib olina boshladi. Ana shunday keskin bir vaziyatda Amir Muzaffarxon markazlashgan Buxoro davlati hamda butun Turkiston hududini dushmanlardan saqlab qolish uchun Angliya, Fransiya, Italiya va Turkiya sultonligi kabi eng qudratli davlatlar bilan o'zining ochiq va maxfiy diplomatik aloqalarini o'rnatdi. Amirlik o'z elchilari orqali Angliyaning Hindistondagi vakillari va Turkiya sultonligi, shuningdek, Fransiya hamda Italiyaga harbiyo-siyosiy aloqalari o'rnatish takliflari bitilgan diplomatik nomalarni jo'natdi. Bu haqda tarixchi Hamid ibn Baqo Xo'janing (O'zFAning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan) "Tanzil al-amsol fikri-zikri bayon ul-ahvol" asarida to'la ma'lumot beriladi. Asar muallifi amirning Qo'qon xonligi bilan birgalikda Vatan himoyasiga o'tlanish maqsadida amalga oshirilgan diplomatik ustamonligi xususida shunday yozadi: "Biz va sizning o'rtangizda do'stlik yuqori darajada bo'lganligi uchun hech qachon sizlarga nisbatan dushmanlikni ravo ko'rmaganmiz va ko'rmaymiz ham.

Bugun biz tomonidan yozilayotgan xat qaroriga asosan Sayxun daryosi ichki tomoni bizniki, tashqi tarafi sizning mulkingizdir...". "Shuningdek, Amir Muzaffar ikki davlat o'rtasida tijorat bordi-keldisini yo'lga qo'yish masalasini ham ko'tardi" deydi muallif. ¹ Albatta bu harakatlar ortida harbiy texnik jihatdan kuchli salohiyatga ega g'arb davlatlari orasidan ishonchli ham siyosiy, ham harbiy ittifoqchi topish maqsadi yotganini yaqqol ko'rish mumkin. Ushbu harakatlar bilan amir Xo'jandni o'z himoyasiga olishga erishadi. Ma'lumki, bunga qadar Buxoro va Angliya o'rtasida yaxshi diplomatik munosabatlar yo'lga qo'yilgan edi. Masalan, ikki mamlakat o'rtasidagi bir yillik savdo hajmi 170 ming funt sterlingni tashkil etar, bu aloqalar esa o'z navbatida yildan-yilga rivojlanib borar edi. Shu sababdan ham amir Muzaffar iqtisodiy-siyosiy hamkori – Angliyaning Hindistondagi general-gubernatori ser Jon Lourensga harbiy ko'mak so'rab murojaat etadi. Elchi Muhammad Porsoxo'ja orqali Kalkuttaga keladi va Buxoroning

¹ Hamid ibn Baqo Xo'janing (O'zFAning Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan) "Tanzil al-amsol fikri-zikri bayon ul-ahvol" asari

Oktabr, 2024-Yil


Angliyaga sodiqligini bildirib, inglizlardan harbiy ko'mak – qurol-yarog', to'plar, moliyaviy yordam va imkoni bo'lsa qo'shin so'raydi. General-gubernator esa aniq javob bermay, elchini ortiga qaytarib yuboradi. Shu o'rinda Muhammad Porsoxo'ja to'g'risida to'xtaladigan bo'lsak. U kishi Buxoroda qozikalon (bosh sudya) lavozimida xizmat qilgan Inoyatullo Xojaning o'g'li bo'lib, unga amir Muzaffar davrida "Muftiy askariya" unvoni berilgan. Qonunshunoslik, tib va boshqa ilmlar bo'yicha katta salohiyatga ega bo'lgan elchi badiyatda ham o'z o'rniga ega bo'lib, ancha ma'noli she'rlar yozgan.

Buxoroda shuningdek, amir Abdul Ahad (1885-1910) hukmronlik qilgan yillarida tashqi diplomatik va savdo-sotiq aloqalari ham ancha rivojlantirilgan edi. Ayniqsa, ushbu davrda ko'proq Rossiya bilan diplomatik aloqalarning amalga oshirilganligini manbalardan ko'rishimiz mumkin. Buxoro hukmdorining Peterburgga qilgan safarlari hisoboti sifatida "Ro'znomai safari Fitirburx" nomli ikki me'muar asar yozilgan bo'lib, asar Buxoro amiri Abdul Ahad tilidan yozilgan va uning 1892-1893 yillarda Peterburgga qilgan safari kundaligi hisoblanadi. Uni Rossiya – Buxoro munosabatlari tarixiga oid manba sifatida baholash mumkin. Ikkinchi asar "Ro'znomai safari chahorum ... ba Fitirburx" deb nomlanib, amir Abdul Ahadning 1906-yilda Peterburgga qilgan safari tafsilotlarini o'z ichiga oladi

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlamok lozimki, Buxoro amirligi O'rta Osiyo xonliklari, Xitoy, jumladan Sharqiy Turkiston, Hindiston, Eron, Turkiya, Rossiya va boshqa mamlakatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalari o'rnatgan. Buxoro amirligi ayniqsa, Xitoy, jumladan, Koshg'ar bilan yaqin savdo munosabatlariga kirishgan. Buxoro Koshg'ar bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilishdan tashqari Xitoyning O'rta Osiyo xonliklari, Hindiston, Eron va Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachi rolini ham bajargan. Buxoro karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg'ar, Quqon xonligi va Xiva xonligi, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar to'plangan. Mazkur savdo aloqalarida Buxoroning tashqi savdo aloqalarida, uning ko'shnilari Marv va Hirot aholisi alohida rol o'ynagan. Buxorolik savdogarlar Marvga har xil rus tovarlarini olib kelganligini alohida ta'kidlanishi lozim. Bu ma'lumotlarni biz o'sha davrda yashagan sayyoh-tarixchilar tomonidan yozib qoldirilgan manbaalar va asarlar orqali o'rganamiz. Bunday asarlarning mavjudligi bizga tariximizni yanada yaqindan o'rganish imkoniyatini beradi. Bu asarlar nafaqat o'zbek balki rus hamda ingliz tarixchilarining asarlaridir.

REFERENCES

1. Амиров Г. Странствование Габайдуллы Амирова по Азии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6. С.110.
2. Амиров Г. Ўша асар. 249 б.
3. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.100.
4. Ханьков Н.В. Описание Бухарского ханства. СПб., 1843. С.88-89.
5. Мейендорф Е.К. Путешествие из Оренбурга в Бухару. М.: Наука, 1975. С.42.
6. Мейендорф Е.К. Ўша асар. 130 б.
7. Мейендорф Е.К. Ўша асар. 98 б.
8. Эверсман Э. Реисе вон Оренбург насх Бухара. Берлин. 1823.
9. Будрин. Русские в Бухаре в 1820 году (Записка очевидца) //Туркестанский сборник. Т.239. СПб., 1880. С..32.
10. Новейшее описание Великой Бухарии //Азиатский вестник. СПб., 1825. № 1-6.



MODERN SCIENCE
& RESEARCH